

LOTIN TILIDA FARMOKOLOGIK DORI VOSITALARINING IKKI USULDA NOMLANISHI VA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI

*SAMDTU BIOTEKNOLOGIYA, INJENIRING VA FARMATSIYA
FAKULTETI*

1-KURS TALABASI ESANOV SEVINCH MO'MIN QIZI.

ILMIY RAHBAR:

*SAMDTU TILLAR KAFEDRASI STAJYOR ASSISTENTI
XAMDAMOVA MUQADDAS XAMIDOVNA.*

Annotatsiya: Bu maqolada farmokologiya sohasida qo'llanadigan dori vositalari nomlarining lotin tili asosidagi lingvistik xususiyatlari kompleks tarzda o'rganiladi. Lotin tilida farmokologik vositalar nomlanishining lingvistik tahlili talabalarga farmokologik termin sifatida tibbiyot sohasida qo'llanilishini xususan, og'zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlatilishini o'rganishlari uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi, farmokologik vositalar nomlanishining lotin tilidagi lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori farmakologik terminlarning morfemik tuzilishiga qaratib unda ildiz(radix) prefiks va suffikslarning semantik yuklamasi hamda funksional ahamiyati tahlil qilinadi. shuningdek, maqolada terminlarning etimologik manbalari, xususan, grek va lotin tillarining o'zaro integratsiyasi, hamda ularning tibbiy terminalogiya tizimidagi o'rni yoritiladi. Dorivositalari nomlarining shakllanishida xalqaro standartlashuv muhim omil bo'lib, bu jarayon World Health Organization tomonidan joriy etilgan INN(International Nonproprietary Names)tizimi orqali amalga oshirilishi asoslab beriladi. tadqiqot davomida farmokologik suffikslarning dorilarni tasniflashdagi roli, ularning farmokodinamik va farmokokinetik xususiylarini ifodalashdagi imkoniyatlari misollar asosida tahlil qilinadi. Lingvistik yondashuv orqali dori nomlarining ichki tuzilishini ochib berish, ularning ma'nosini tez va aniq tushunish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so'zlar: *Farmokologiya, lotin tili, dori vositalarining nomlanishi, fonetika, trivial nom, ilmiy nom, tibbiyot, leksik minimum, suffiks, asos, old qo'shimcha, lingvistik tahlil, kilinik terminlar, xalqaro nomlash tizimi (INN), etimologiya.*

KIRISH

Lotin tilida o'simliklarning botanik va farmokologik nomlanishini bilish bugungi kunda dolzarb asosiy fragmentlardan biri bo'lib bormoqda va dori vositalarining to'g'ri nomlanishi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Dori nomlari nafaqat ularning kimyoviy tuzilishi va farmokologik xususiyatlarni ifodalaydi, balki xalqaro miqyosda mutaxassislar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi. Shu jihatdan dori vositalarining nomenklaturasi lotin tili asosida shakllangan murakkab va tizimli lingvistik hodisa hisoblanadi. Lotin tili asrlar davomida tibbiyot va farmokologiyaning xalqaro tili sifatida shakllangan. Dorivor vositalarning nomlanishida lotin tili nafaqat tarixiy an'ana, balki terminologik aniqlik va universallikni ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Farmokologik nomlarning lingvistik

tahlili ularning ma'nosini to'g'ri anglash, yodda saqlash va amaliyotda to'g'ri qo'llashga yordam beradi.

ASOSIY QISM: Farmatsevtik atamashunoslik "Farmatsiya" (yun.pharmakeia -dori tayyorlash va qo'llash) nomi ostiga birlashuvchi va dori - darmonlar tarkibini o'rganish, qidirib topish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi qator maxsus fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuada markaziy o'rinni qo'llash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan dorivor moddalar va preparatlar ya'ni dori - darmonlar nomenklaturasi egallaydi. Dorivor vositalarning nomenklaturasi - bu dorilarni ilmiy asosda nomlash, tizimlashtirish va standartlashtirish jarayonidir. Ushbu tizim farmokologiya va Tibbiyot terminologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Dorivor vosita (medicamentum, remedium) bu odam va hayvonlarning kaslliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida ishlatish uchun ruxsat etilgan farmokologik vositadir. Dori nomlari faqat oddiy atama emas, balki ular dorilarning kimyoviy tarkibi, farmokologik ta'siri, qo'llash sohasi haqida muhim ma'lumot beradi. Dorivor modda (materia medica, substantia pharmaceutica) bu alohida kimyoviy birikmadan yoki biologik moddadan iborat bo'lgan dorivor vositadir. Dorivor o'simliklar xom ashyosi - bu davolash maqsadida qo'llash uchun ruxsat etilgan o'simliklar xomashyosi. Murakkab dori vositasi - bu bir dori shaklida belgilangan dozlarda birdan ortiq ta'sir etuvchi moddalarga ega bo'lgan dorivor vositasidir. Dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar ikki xil nomga ega:

1: Ilmiy yoki tizimli nom.

2: Trivial (lot. trivialis - odatdagi) nom

Ilmiy nom dorivor moddalarning kimyoviy tarkibini ifodalaydi. Lekin o'zining murakkabligi, qiyinligi bilan retseptlarda, yorliqlarda, apteka savdosida qo'llash uchun noqulay hisoblanadi.

Trivial nomlar esa o'zining ixcham qisqa va soddaligi bilan amalda qo'llashga qulaydir.

Trivial nomlar	Ilmiy nomlar
Analgin	1-fenil-2,3-dimetil-4-metilamina-pirazolon-5-metensulfanat natriya
Fenasetin	1-etoksi-4-asetaminobenzol trano -9,13-dimetil-7
Retinol (vitamin A)	1,1,5-Trimetilsiklogeksen-5-il-6/nonatetrayen-7,9,11,13-ol

Dori-darmonlarning trivial nomi turli so'z yasovchi tarkibga ega. Uning asosini lotin yoki yunon tiliga mansub o'zaklar tashkil etadi. Bundan tashqari trivial nomlarni yasashda boshqa so'z yasash vositalari ishtirok etadi. Shunga ko'ra, trivial nomlar oddiy, yasama, qo'shma va qisqartma so'zlardan iborat bo'lishi mumkin. Trivial nomlar quyidagi usullar

bilan farqlanadi: bitta asosga ega bo'lgan nomlarni -in+um yoki -ol+um suffikslarini qo'shish bilan hosil qilish mumkin.

Masalan: Mentholum, Analginum,
Papaverinum, Apisarthronum,
Dimexidum, Sulfadimezinum.

Dorivor vositalar nomlari turli lingvistik modellarga ega:

Prefiks +ildiz +suffiks = antibacterialis

Ildiz +SUFFIKS = analginum

Kimyoviy asos +suffiks = Paracetamolium

XULOSA

Dorivor vositalarning nomenklaturasi farmokologiya va tibbiyot terminalogiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, dorilarni ilmiy asosda nomlash va tizimlashtirishga xizmat qiladi. Lotin tili zamonaviy dunyoda xususan tibbiyot sohasida muhim madaniy hodisa bo'lib qolmoqda. Bu o'lik til bo'lsada insoniyat faoliyatining ko'plab sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Dunyo tan olgan xorijiy tillarni o'rgangan holda, tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha lotin tilida o'simliklarning botanik va farmokologik nomlanishini bilish bugungi kunda dolzarb asosiy fragmentlardan biri bo'lib bormoqda. Chunki bunday ustunlik va imkoniyatlarga ega bo'lgan kadrlar o'z yurtida hamda dunyo bo'ylab samarali tajriba almashinib, kasbiy barkamollikka erishishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dorivor vositalar nomlari asosan lotin tili va yunon tili elementlari asosida shakllanib, ularning morfemik tuzilishi -prefiks, ildiz va suffikslardan iborat. Ayniqsa, suffikslar dorilarning farmokologik guruhini aniqlashda muhim rol o'ynaydi hamda ularni tez va aniq tasniflash imkonini beradi. Lotin tilini bilish dunyoning turli mamlakatlaridagi shifokorlarga bir-birini to'laqonli tushunish imkonini beradi va tibbiy ta'limni birlashtirish uchun birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Farmokologik nomlarning lingvistik tahlili ularning ma'nosini to'g'ri anglash, yodda saqlash va amalyotda to'g'ri qo'llashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Denis A Kharkevich. Farmakologiya. Moskva :GEOTAR -Media, 2019.
2. Mallaevna, N.S.(2024) The social and cultural importance of the latin language and its present and historical landscape. Central Asian Journal of Academic Research,2(5), 51-55.
3. Tatyana Petrova . Lotin tili va tibbiyot terminalogiyasi . Toshkent, 2018.
4. Alisherovna, A. U.(2023) . Discourse in modern linguistics. Journal of new century innovations, 26(5), 123-128.
5. Martindale:The Complete Drug Reference.(2022). 40th ed. London:Pharmaceutical Press.
6. Dorland's illustrated Medical Dictionary.(2020).33rd ed.Philadelphia:Elsevier.

7. Fayzullayev, F. U. "The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language." *JournalLNX*, vol. 7, no .1, 2021, pp 68-70.
8. Richard A. Harvey, va Pamela C. Champe. (2021). *Lippincott's illustrated Reviews: Pharmacology* (7th ed.). Philadelphia: Wolters Kluwer.
9. Mardonovich M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta'siri. *Research Focus Internatoinal Scientific Joun-rnal*, 2(6), 132-136.
10. M.N. Hakimova, "lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari".
11. L.M.Xo'jayeva "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent 2005.
12. Farmakologiya bo'yicha xalqaro ilmiy jurnallar :*Journal of Pharmacology, European Journal of Clinical Pharmacology, The Lancet*.